


**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**  
**“Ёшлар ишлари агентлиги**  
**Самарқанд шаҳар бўлими, комиссия**  
**раиси**

  
\_\_\_\_\_ **В.Бобомуродов**

Ёшлар ишлари агентлиги Самарқанд шаҳар бўлими маҳаллаларда  
ўтказиладиган тадбирларга совға сифатида тарқатилиши учун бадий  
китоблар харид қилиш тўғрисида комиссия йиғилиши  
**БАЁНИ**

Самарқанд шаҳар

« 7-июл » 2022

Раислик қилувчи

**В.Бобомуродов**

Иштирок этган комиссия аъзолари:

|              |                    |
|--------------|--------------------|
| М.Нарзуллаев | Етакчи мутахассис. |
| С.Амиров     | Бош мутахассис     |
| З.Равшанов   | Бош мутахассис     |
| А.Қутматов   | Етакчи мутахассис  |
| М.Ибодуллаев | Ёшлар етакчиси     |
| Н.Валибеков  | Ёшлар етакчиси     |
| Ш.Зулфиқоров | Бош ҳисобчи        |

**КУН ТАРТИБИ:**

Ёшлар ишлари агентлиги Самарқанд шаҳар бўлими маҳаллаларда ўтказиладиган тадбирларга совға сифатида тарқатилиши учун бадий китоблар харид қилиш тўғрисида.

---

(М.Нарзуллаев, С.Амиров, З.Равшанов, А.Қутматов, М.Ибодуллаев, Н.Валибеков, Ш.Зулфиқоров)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 19 январдаги “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-92-сон Қарорига асосан Ёшлар билан ишлашнинг янгича бошқарув механизмларини жорий этиш, улар билан ишлашнинг вертикал тизимини яратиш, ёшлар муаммоларини бевосита маҳаллаларда ҳал этиш, таълим муассасаларида маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларнинг самарадорлигини янада ошириш мақсадида:

**ҚАРОР ҚИЛИНДИ:**


1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси 3-бандига

асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш кунидан давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Бўлим бош ҳисобчиси Ш.Зулфиқоровга юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 5 июлдаги электрон баённомасига асосан ғолиб “ЮКСАК ТЕХНОЛОГИЯ”МЧЖ корхонаси билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузиш вазифаси юклатилсин.

### Комиссия аъзолари

М.Нарзуллаев  
С.Амиров  
З.Равшанов  
А.Кутматов  
М.Ибодуллаев  
Н.Валибеков  
Ш.Зулфиқоров



Етакчи мутахассис.  
Бош мутахассис  
Бош мутахассис  
Етакчи мутахассис  
Етакчи  
Етакчи  
Бош ҳисобчи

# OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

2022-yil 7-ULON

111255/1

Samarqand shahar 2022

“YUKSAK TEXNOLOGIYA” MCHJ keyingi o‘rinlarda Sotuvchi deb yuritiladi. O‘zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari **Murodimov Elmurod** nomidan, bir tomondan **Yoshlar ishlari agentligi Samarqand shahar bo‘limi**, keyingi o‘rinlarda Sotib oluvchi deb yuritiladi, o‘zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari **F.Zoxidov** nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMANING PREDMETI.

1.1.Sotuvchi o‘ziga tegishli bo‘lgan tovarni ushbu spetsifikatsiyaga asosan Sotib oluvchiga mulk qilib topshirish, Sotib oluvchi esa maxsulotni qabul qilish va ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini oladi.

1.2.Ushbu shartnomaning umumiy summasi **62 000 000** (oltmish ikki million) so‘mni tashkil etadi.

| №                      | Tovar nomi      | O‘l. bir. | Soni | Narxi | QQS    |       | Summasi           |
|------------------------|-----------------|-----------|------|-------|--------|-------|-------------------|
|                        |                 |           |      |       | Stavka | Summa |                   |
| 1                      | Badiiy kitoblar | dona      | 2000 | 31000 | 0      | 0     | 62 000 000        |
| <b>Jami QQS bilan:</b> |                 |           |      |       |        |       | <b>62 000 000</b> |

## 2. YETKAZIB BERISH VA HISOB-KITOBBLAR SHARTLARI

2.1. “Sotib oluvchi” mazkur shartnomani Samarqand shahar bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasida ro‘yxatga olingan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30 % miqdorida oldindan to‘lash majburiyatini oladi, qolgan 70 % to‘lovni tovarni olgandan so‘ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisobfaktura va v.b. hujjatlar asosida to‘laydi.

2.2. “Sotuvchi” avans mablag‘lari Sotuvchining tegishli hisobvarag‘iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 5 bank ish kuni ichida tovarni etkazib berish majburiyatini oladi.

2.3. “Sotuvchi” amaldagi standartlarga muvofiq mazkur shartnomaning 1.2-bandida ko‘rsatilgan tovarlarni etkazib berishi shart.

2.4. “Sotib oluvchi” tovarlarni qabul qilishda “Sotuvchi” ishtirokida olinayotgan tovarlarning to‘liqligini va sifatini shartnomaning 1.2-bandida ko‘rsatilgan tovarlarga muvofiqqligini tekshirishi shart.

2.5. Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo‘yicha barcha xarajatlar Sotuvchi xisobidan amalga oshiriladi.

2.6. Sotib oluvchining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Sotib oluvchining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.**

#### **3.1. Sotib oluvchining huquqlari:**

Sotuvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Sotib oluvchi hisobidan tovarlar tashib keltirilganda, Sotuvchidan transport xarajatlarini qoplab berishni talab qilish, agar mazkur shartnomaning shartlarida boshqa hollar belgilanmagan bo'lsa;

Sotuvchidan mazkur shartnomaga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- 1) tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- 2) kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish;
- 3) Sotuvchidan mazkur shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

#### **3.2. Sotib oluvchining majburiyatlari:**

- 1) mazkur shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- 2) tovarlarning qiymatini mazkur shartnomada belgilangan narxda va muddatda to'lash.

#### **3.3. Sotuvchi quyidagi xuquqlarga ega:**

1) "Sotib oluvchidan" oldindan to'lov va yetkazib berilgan tovarlar uchun yakuniy hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda va hajmlarda amalga oshirishni talab qilish;

2) Sotib oluvchidan shartnomaga muvofiq, yetkazib berilgan tovarlarni asossiz ravishda qabul qilmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berishni talab qilish.

#### **3.4. Sotuvchining majburiyatlari:**

1) Sotib oluvchiga tovarlarni mazkur shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;

2) agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Sotuvchi shartnoma shartlari va me'yorlardan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'l qo'ygan hollarda Sotib oluvchining talabi bo'yicha 15 - kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda mazkur shartnoma shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

#### 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Tovarlarini tanlab olmaslik, shuningdek Sotuvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrd) ularni yetkazib berganda tovarlarini olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi Sotuvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, Sotuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.2. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Sotib oluvchi mahsulot Sotuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi. Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Sotib oluvchi Sotuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.3. Sotuvchi:

1) miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarini etkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha Sotuvchi shartnoma shartlarining Sotib oluvchi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

2) shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;

3) tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.4. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa oluvchi (Sotib oluvchi) tovarlarini qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Sotuvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima Sotuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.5. Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar Sotuvchi sotib oluvchiga (Sotib oluvchiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.6. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarini, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarini yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarini yetkazib berganlik uchun

Sotuvchi sotib oluvchiga (Sotib oluvchiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (Sotib oluvchi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin Sotuvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi Sotuvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

#### **5. NIZOLARNI HAL QILISH**

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlarni kelishuviga asosan shartnomani 7.1-bandi bajarilmagan taqdirda tegishli Iqtisodiy sudga murojaat qilinib, sud orqali hal qilinadi

#### **6. FORS - MAJOR**

6.1. Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 15-fevralidagi 63-sonli "Yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini kiritish to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

#### **7. BOSHQA SHARTLAR**

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi

#### **8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

8.1. Mazkur shartnoma Samarqand shahar bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil "31" dekabrgacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, taraflarning kelishuviga muvofiq, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi

#### **9. KORUPSIYAGA QARSHI KURASH**

9.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

9.2 Ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari pora berish-olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar talablarini buzilishi kabi harakatlarni amalga oshirmaydi.

9.3 Ushbu Shartnoma tomonlarining har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ularga ish (xizmatlar)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

## 10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI BANK REKVIZITLARI

### “S O T U V C H I”

**Nomi:** Yuksak texnologiya MCHJ

**Manzil:** Payariq tumani G'allakor

MFY Alanguz q/q 40-uy

**Tel/faks:** 99 330 90 02

**H/r:** 20208000605502968001

**Bank nomi:** O'zsanoat qurilish  
banki

**MFO:** 00440

**INN:** 309 364 506

**OKED:**

**Rahbar:**  E. Murodimov



### “S O T I B O L U V C H I”

**Nomi:** Yoshlar ishlari agentligi Samarqand  
shahar bo'limi

**Manzil:** Samarqand shahar T. Malik  
ko'cho'chasi 3-uy


**Tel/faks:** 66 233 21 98

**H/r:** 100022860184017049996225001

**Bank nomi:** Markaziy bank **MFO:** 00014

**INN:** 309 219 613

**Rahbar:**  F. Zoxidov



*Yuri shonsult*

*L. Orinboyeva*



**“TASDIQLAYMAN”**

**Yoshlar ishlari agentligi Samarqand  
shahar bo‘limi boshligi**

**E.Daverov**

**Kitoblar ro‘yhati**

| T/r | Kitoblar nomi  | Muallifi                   | Soni | Beti | Muqovasi | Yozuvi         |
|-----|--|----------------------------|------|------|----------|----------------|
| 1   | Og‘abiy  | Kengisboy<br>Karimov       | 100  | 286  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 2   | Dashtdagi olov   | Xabib<br>Abdunazar         | 100  | 230  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 3   | Sonata tilsimi   | Lev Tolstoy                | 100  | 262  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 4   | Oq gullar  | Yanusari<br>kavabata       | 100  | 265  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 5   | Anor   | Abdulla<br>Qahhor          | 100  | 197  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 6   | Kunsuluvning sirli<br>xatlari  | Sobir O‘nar                | 100  | 429  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 7   | Urush ko‘rgan<br>adiblar   | Nabi jaloliddin            | 100  | 386  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 8   | Ayol (“Besh<br>tashabbus – besh<br>kitob”)                                     | Zulfiya<br>Qurolboy qizi   | 100  | 318  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 9   | «Xaloskor sulton<br>Sayfiddin Qutuz»   | SHAHODAT<br>ULUG‘          | 100  | 240  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 10  | «O‘zbekiston<br>tavalludi. Ilk SSSR<br>davrida millat,<br>imperiya va inqilob» | ADIB XOLID                 | 100  | 280  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 11  | «She‘rlar»   | Cho‘lpon                   | 100  | 225  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 12  | «Kecha va kunduz»  | Cho‘lpon                   | 100  | 380  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 13  | «Musavvirning<br>yoshlikdagi<br>shamoyili»                                     | Jeyms Joys                 | 100  | 276  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 14  | «Yomg‘ir»  | Somerset<br>Moem           | 100  | 190  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 15  | «Qonli gullar<br>vodiysi: tarixiy  | BAXTIYOR<br>ABDUG‘AFU<br>R | 100  | 340  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 16  | «Vaqt manzili»   | AZIZ SAID                  | 100  | 220  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 17  | «O‘zbek<br>davlatchiligi tarixi»   | AZIZ SAID                  | 100  | 280  | qattiq   | lotin alifbosi |
| 18  | «Eski o‘zbek yozma<br>adabiy tili»   | Qosimjon<br>Sodiqov        | 100  | 234  | qattiq   | lotin alifbosi |



|    |                                |                         |             |     |        |                |
|----|--------------------------------|-------------------------|-------------|-----|--------|----------------|
| 19 | «Tanlangan asarlar»<br>I jild  | Mahmudxo'ja<br>Behbudiy | 100         | 256 | qattiq | lotin alifbosi |
| 20 | «Tanlangan asarlar»<br>II jild | Mahmudxo'ja<br>Behbudiy | 100         | 260 | qattiq | lotin alifbosi |
|    | <b>Jami:</b>                   |                         | <b>2000</b> |     |        |                |

Bosh hisobchi

*Sh. Zulfiqorov*

Sh.Zulfiqorov